

IQTISODIY O'SISH VA RIVOJLANISH OMILLARI VA ULARNI TADBIQ ETISHNING XORIY TAJRIBASI

Kaxorova Anora Nusratovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Iqtisodiyot fakulteti "Fundamental iqtisodiyot" kafedrası 1-
kurs doktoranti e-mail:kahorovaanora1991@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu ilmiy tadqiqotda mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy tadqiqotlarida berilgan "iqtisodiy o'sish" va "iqtisodiy rivojlanish" ta'riflari o'rganilib, ularning talqinlarining xilma-xilligini ko'rib chiqildi. Har bir davlat va uning iqtisodiy faoliyatining asosiy maqsadi aholi turmush farovonligini yaxshilash va keyingi o'rinda iqtisodiy jihatdan baquvvat bo'lish hisoblanadi. Dunyoning deyarli barcha davlatlarida iqtisodiy faoliyat uchun iqtisodiy o'sish ko'rsatkichi yillik ravishda hisob kitob qilib boriladi. Ammo, ko'p hollarda uning samaradorligini baholash ikkinchi o'rinda bo'ladi. Shu sababli iqtisodiy o'sish va rivojlanish o'rtasidagi farqni quyidagi jadval asosida ko'rish mumkin.

Kalit so'zlar: iqtisodiy o'sish, kapital, mehnat, tovarlar bozori (IS), pul bozori (LM), to'lov balansi (BP), foiz stavkasi, kapital qaytimi, texnologiyalar, kapital jamg'arilishi, jamg'arish darajasi.

Nazariy tahlil

O'sish (iqtisodiyotda) — mamlakatda tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar yaratish hajmining oldingi yil (davr)larga nisbatan ko'paygan miqdorda takrorlanishi. Iqtisodiy o'sishni ta'minlash har qanday mamlakat iqtisodiy siyosatining asosiy maqsadi hisoblanadi. Yildan yilga aholi sonining ko'payishi, kishilar ehtiyojlarining mutassil ortib borishi iqtisodiy O'sishni shart qilib qo'yuvchi asosiy sabablardandir. Iqtisodiy O'sish aholi turmush darajasini oshirishga, xalq farovonligini ta'minlashga xizmat qiladi. Iqtisodiy O'sish negizida iqtisodiyotdagi yetakchi tarmoqlarning rivojlanishi turadi. Iqtisodiy o'sish ishlab chiqarishning ilg'or tuzilmasiga, yuqori mehnat unumdorligi darajasiga, ichki va tashqi bozorda talab katta bo'lgan raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishga, mahsulotni qulay bozorlarda sotishga tayanadi. Boshqacha aytganda, iqtisodiy O'sish mahsulot ishlab chiqarishning real hajmini muttasil qo'paytirib borish va ayni paytda jamiyat taraqqiyotida texnologik, iqtisodiy va ijtimoiy tavsiflarning yaxshilanib borishini anglatadi.

Iqtisodiy O'sishni aniqlash va hisoblashda mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining eng umumiy ko'rsatkichi bo'lgan yalpi ichki mahsulot (YAIM) asos bo'lib xizmat qiladi va iqtisodiy o'sishning muayyan davr mobaynida real YAIM hajmining ijobiy tomonga o'zgarishini ko'rsatadi. Iqtisodiy o'sish sur'atlari YAIM o'sish sur'atlarida o'z aksini topadi.

Iqtisodiy O'sish mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishining umumiy holatini ifodalaydi. Real YAIM hajmining o'zgarishi mamlakat iqtisodiyoti holati va dinamikasi to'g'risida ma'lumot bersada, iqtisodiy O'sishni to'liq aks ettirmaydi. Mas, mamlakat aholisining O'sish sur'ati 3% ni, real YAIM ning O'sish sur'ati ham 3% ni tashkil etdi. Bunday holatda, garchi YAIM hajmi o'sgan bo'lsada, kishilarning daromadlari o'zgarmay qoladi. Shu sababli

iqtisodiy O'sishni to'laroq aks ettirish uchun boshqa bir ko'rsatkich — aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan real YAIMning o'zgarishi qo'llaniladi.

1-jadval

Iqtisodiy o'sish va iqtisodiy rivojlanishning taqqoslama jadvali		
	Iqtisodiy o'sish	Iqtisodiy rivojlanish
Ma'nosi	Iqtisodiy o'sish mamlakatdagi real ishlab chiqarish va xizmatlar soni oshishini nazarda tutadi.	Iqtisodiy rivojlanish nazarda tutadi daromadlar, jamg'armalar va investitsiyalar bilan birga mamlakatning ijtimoiy iqtisodiy sohadagi progressiv tuzilishidagi o'zgarishlarni (institutSIONAL va texnologik o'zgarishlar).
Omillar	O'sish yalpi ichki mahsulot qismlaridan biridagi asta sekin o'sishga bog'liqdir: iste'mol, <u>hukumat xarajatlari, investitsiya</u> va sof export.	Rivojlanish inson kapitali <u>o'sishiga tengsizlik</u> ko'rsatkichlarining pasayishiga va aholi hayotini yaxshilashga qaratilgan strukturaviy o'zgarishlarga bog'liqdir.
O'lchovlari	Iqtisodiy o'sish miqdoriy faktorlar, masalan haqiqiy yalpi ichki mahsulotning o'sishi yoki odam boshiga to'g'ri keladigan daromadning oshishi bilan o'lchanadi.	Iqtisodiy rivojlanishni baholashda <u>HDI</u> (Inson Rivojlanish Indeksi), gender-moslik indeksi, Inson kambag'allik indeksi (HPI), go'daklarnining o'limi, savodxonlik darajasi kabi sifat ko'rsatkichlaridan foydalaniladi.
Ta'sir	Iqtisodiy o'sish iqtisodiyotga miqdoriy o'sish olib keladi.	Iqtisodiy rivojlanish iqtisodiyotning ham sifatijihatdan ham miqdoriy jihatidan <u>o'zgarishiga</u> olib keladi.
Aloqadorlik	Iqtisodiy o'sish milliy va kishi boshiga to'g'ri keladigan daromad o'sishini aks ettiradi.	Iqtisodiy rivojlanish esa mamlakatdagi hayot sifatining <u>o'sishini</u> aks ettiradi.

Iqtisodiy o'sishni aniqlash va asoslab berish paytida quyidagilarga ahamiyat berish kerak berish kerak [2]:

- 1) Iqtisodiy o'sishni baholash;
- 2) O'sish omillari;
- 3) Iqtisodiy o'sish modellari.

Bularga qo'shimcha ravishda, iqtisodiy o'sish bir nechta omillarga bog'liq:

- Tabiiy resurslar hajmi va sifati;
- Mehnat resurslari hajmi va sifati;
- Asosiy kapital hajmi;
- Texnologiyalar va innovatsiyalar;

So'ngi yillardagi dunyo mamlakatlaridagi orasida globallashuv kuchayishi natijasida ko'pgina davlatlar iqtisodiy pasayishga yoki tashqi qarzi YaIM ga nisbatan bir necha yuz barobarlab ko'payib ketadigan davlatlar soni ortib bormoqda. Ammo, ushbu davlatlar orasidan Xitoy eng yuqori iqtisodiy o'sishga va tashqi qarzi eng kamligi bo'yicha (13.7 %

YaIM ga nisbatan) dunyo mamlakatlari orasida yetakchilik qilmoqda. Shu sababli, Xitoy xalq demoktarik respublikasi iqtisodiy o'sish dastaklariga to'xtalib o'tamiz.

Deyarli 45 yil oldingi iqtisodiy reformatsiyalar va savdo erkinlashuvidan oldin, Xitoy iqtisodiyoti juda nochor, o'zgarishsiz, markazdan boshqariladigan, keng miqiyosida samarasiz va global iqtisodiyotdan haddan tashqari ajratib turadigan siyosat olib borgan. 1979-yilda tashqi savdo va investitsiyalarga chiqish va erkin savdo o'zgarishlarini qilganidan beri, hozirgi kungacha Xitoy dunyoning eng tez o'sadigan iqtisodiyotiga ega davlat hisoblanadi, yillik o'rtacha YaIM(GDP) o'sish ko'rsatkichi 2018 yilgacha 9.5% ni tashkil qilgan [4]

1-chizma: Xitoy iqtisodiyotining asosiy iqtisodiy barqarorlik omillari



Manba: Jahon banki ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

O'zbekiston Respublikasida ham so'ngi yillarda yuqoridagi omillarga katta e'tibor qaratilyapti. Misol uchun, mamlakatda 2022- yil yakuni bo'yicha yalpi ichki mahsulot hajmi qariyb 888.4 trl so'mni tashkil qildi [5]. Bundan eng yuqori hissa qo'shgan tarmoq bo'lib xizmatlar va sanoat hisoblanadi.

Mamlakatimizda ham iqtisodiyotni rivojlantirish hamda O'zbekiston respublikasida talab va taklif, ish bilan bandlik va ishsizlik va shunga o'xshash masalalarda muvozanatni saqlash uchun prezidentimizning PF-60-sonli "2022-2026 yillarga moljallangan Yangi O'zbekiston Taraqqiyot Strategiyasi" to'grisidagi farmoni qabul qilindi. Ushbu farmonning III-yo'nalishi "Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash" deb ataldi va quyidagi maqsadlarni o'z ichiga oldi [3].

Xulosa

Yuqoridagilardan xulosa qiladigan bo'lsak iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan isloh qilish, rivojlanishi, mavjud muammo va to'siqlarni tezkorlik bilan aniqlash va bartaraf etishga asoslangan zamonaviy va inklyuziv institutsional tizimni joriy etishni talab etadi. Jumladan:

-makroiqtisodiy barqarorlik, iqtisodiy o'sish maqsadlari va tarkibiy islohotlar o'rtasidagi muvofiqlikni ta'minlash;

-tashqi va ichki omillar ta'sirida yuzaga keladigan iqtisodiy sikllarni boshqarishning zamonaviy prognozlashtirish modellariga asoslangan samarali tizimi va mexanizmlarini joriy etish;

-kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish bo'yicha yaxlit tizim va muvofiqlashtiruvchi davlat organi, me'yoriy-huquqiy baza, mezonlar va baholash uslubiyotining mavjud emasligi,

-ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va tadbirkorlikka jalb qilish vazifalarining aniq ajratib olinmaganligi sababli tegishli aholi guruhlari bilan amalga oshirilayotgan ishlarning samaradorligi past darajada ekanligi;

-hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha aniq yondashuv va tamoyillar to'liq shakllantirilmaganligi;

-iqtisodiyotning hududiy va tarmoq rivojlanishi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik ta'minlanmasdan hamda hududlarni rivojlantirishdagi mavjud salohiyat va «nisbiy ustunlik» mezonlaridan oqilona foydalanish;

-ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishda inson kapitali va demografik omillar inobatga olish;

-mamlakatda kichik va o'rta biznesni rivojlantirishning aniq yondashuvlarini belgilab olish, tadbirkorlikni moliyaviy va nomoliyaviy qo'llab-quvvatlashni tizimlashtirish;

-dasturlar hisobidan ajratilayotgan mablag'larning sarflanish samaradorligini baholashdagi kamchiliklarni bartaraf etish;

-mamlakat sanoatini rivojlantirishning fundamental drayverlari hisoblangan sohalarda mehnat unumdorligini oshirish;

-sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini kuchaytirish bo'yicha aniq mexanizm va dastaklarga asoslangan yagona industrial siyosat va strategiya ishlab chiqish;

-zamon talablaridan kelib chiqib yangilash va samarali foydalanish masalalariga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq.

Samarali makroiqtisodiy siyosatni yuritish, barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlash, tadbirkorlik muhitini yaxshilash orqali mamlakatda kambag'allikni qisqartirish, barqaror iqtisodiy o'sish borasida maqbul davlat siyosatini amalga oshirish tizimini joriy etish zamon talabidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. 1.Ўзбекистон Республикаси президентининг “ 2022 — 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида” ги 2022 йил 28 январь,ПФ-60-сон Фармони.
2. 2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Тошкен 2021 – 280 Б
3. Djumayev Z.A. Makroiqtisodiyot. O'quv qo'llanma. "Innovatsion rivojlanish" nashriyot-matbaa uyi, 2018. –164 bet. /

4. Djumayev Z.A. Makroeconomics. Instructional manual: "Innovative Development Publishing House", 2018. –164 page.2.
5. Le Ngoc Thong, Nguyen Thi Hao. International Journal of Humanities Social Sciences and Education, Volume-6, Issue-4, April 2019. P 11-12.3. Daron Acemoglu. Introduction to Modern Economic Growth. 2007. P. 50-54.4.
6. Robert J.Barro, Xavier Sala-i-Martin. "Economic Growth" Second edition. P. 23-30.5.
7. Lewis, William Arthur. The Theory of Economic Growth. –London, 2003. P. 1-29.6.
8. Daron Acemoglu, James A. Robinson. Why Nations Fail. –New York, 2012. P. 93-96.
9. Viktoria Kajanovichova, Branislav Novotny, Michal Posposil. Ramsey model with non-constant population growth. // The journal of Mathematical Social Sciences. V-4/2020. P. 40-46.8. Mark Wallace. Chiqildi